

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
FILOLOGIYA

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

ADABIYOTSHUNOSLIK

M.A.Jo'rayeva	
Safarnomaning paydo bo'lishi va janr sifatida shakllanishi	5
S.A.Xaqnazarova	
Abdulla Sher lirikasida formal an'analar	8
S.A.Odilova	
Badiiy asarda ikkinchi darajali personajlar talqini	12
B.N.Isakova	
O'tkir Hoshimov va Jek London ijodida mavzular ko'lami qiyosiy tahlili	15
Sh.R.Maxamadjonova	
Adabiyotda aforizm tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari	19
M.S.A'zamjonova	
Kitobxon kodi: badiiy asarda psixologizm	22
G.Xaydarova	
"Ona lochin vidosi" romanida kolliziya konflikt	26
М.Б.Ботирова	
XX asr o'zbek adabiyotida psixologik taxlilning o'ziga xos xususiyatlari	28
A.Baba	
Comparison of eastern and western variants of the <i>Koroglu</i> epic.....	31

TILSHUNOSLIK

I.M.Azimov	
Qayum ramazon va uning "O'zbek tilining birlashgan imlo qoidalari" risolasi xususida	37
M.F.Yo'ldasheva	
Jek London asarlari tarjimalarining lingvopragmatik tadqiqi.....	43
U.T.Muratbaeva	
Lexical and semantic features of the expression of ethical concepts in the karakalpak language	50
S.B.Hafizov	
The semantic network of "head" in english and uzbek based on lexical field comparison.....	54
R.T.O'rinboyeva	
Qo'shrabot tumani shevasining fonetik xususiyatlari	59
A.B.Vosiljonov	
Farg'ona viloyati shevalari bazasini yaratishning umumiy nazariy asoslari	63
M.V.Ahmadova	
Syllable rhythm and prosody: the theory of classification of languages by rhythm and the manifestation of isochrony in the poetic system	68
M.N.Najmiddinova	
Linguopragmatic analysis of phraseological units and idioms relating to the concept of hospitality in english and uzbek.....	73
N.A.Beknazarova, M.Y.Madiyeva	
The definition and key components of communicative competence in language learning.....	85
X.A.Sarimsokov	
Sport sharhlarini asosini tashkil qiluvchi leksik birliklarning diaxron tadqiqi	88
S.A.Raxmonberdiyeva	
Qurilish sohasiga oid ingliz va o'zbek tillaridagi leksik birliklarning lingvistik tahlili	93
X.A.Asqaraliyeva	
Media-kommunikativ muloqotda paralingvistik vositalar	96
H.X.Bozorov	
O'zbek xalq ertaklaridagi obrazlar: lingvopoetik, badiiy va falsafiy tahlil	100

**KITOBXON KODI: BADIY ASARDA PSIXOLOGIZM****READER CODE: PSCHOLOGISM IN LITERARY WORKS****КОД СЧИТЫВАТЕЛЯ: ПСИХОЛОГИЗМ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ИСКУССТВА****A'zamjonova Mohinur Soxibjon qizi** 

Farg'ona tumani 51-umumiy o'rta ta'lim maktabi, o'qituvchi

Annotatsiya

Bilamizki bugungi kunda inson psixologiyasi, uning xususiyati va psixologiyani tashkil etuvchi bir necha omillar yig'indisi ko'plab tadqiqotlar va zamonaviy izlanishlar obyekti bo'layotganini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, badiiy adabiyotda psixologiya, badiiy psixologizm nafaqat qahramnlar xarakterini, ruhiy holatini ko'rsatishda, balki asar g'oyasini kitobxonga yetkazib berishda ham muhim ahamiyatga ega. Quyidagi maqolada badiiy psixologizm mohiyati, uning shakllanishi, psixologizm vositalari hamda prinsiplari haqida bayon qilinadi. Psixologizmning badiiy asarlarda qo'llanilishi Uilyam Shekspir, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Chingiz Aytmatov asarlaridan misollar orqali tahlil qilinadi va o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib beriladi.

Аннотация

Мы знаем, что сегодня мы можем видеть, что психология человека, ее особенности и сумма многих факторов, составляющих психологию, являются объектом многих исследований и современных изысканий. Также в художественной литературе, психологии художественный психологизм важен не только для показа характеров и душевного состояния героев, но и для донесения идеи произведения до читателя. В данной статье описывается сущность художественного психологизма, его формирование, средства и принципы психологизма. На примерах из произведений Уильяма Шекспира, Абдуллы Кадыри, Абдуллы Каххора, Чингиза Айтматова анализируется использование психологизма в художественной литературе, показываются его специфические особенности.

Abstract

We know that today we can see that human psychology, its characteristics and the sum of several factors that make up psychology are the object of many studies and modern research. Also, in fiction, psychology, artistic psychologism is important not only in showing the character and mental state of the heroes, but also in conveying the idea of the work to the reader. The following article describes the essence of artistic psychologism, its formation, the means and principles of psychologism. The use of psychologism in works of art is analyzed through examples from the works of William Shakespeare, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Chingiz Aitmatov, and its specific features are shown.

Kalit so'zlar: Psixologizm, psixologik tahlil, xarakter, monolog, psixologik portret, ruhiyat, ichki kechinma, badiiy obraz, qahramon shaxsiyati, psixologik vositalar, psixologizm prinsiplari.

Ключевые слова: Психологизм, психологический анализ, персонаж, монолог, психологический портрет, психика, внутреннее переживание, художественный образ, личность героя, психологический инструментарий, принципы психологизма.

Key words: Psychologism, psychological analysis, character, monologue, psychological portrait, psyche, inner experience, artistic image, hero's personality, psychological tools, principles of psychologism.

KIRISH

Badiiy asar yozuvchining xayoloti, his-tuyg'ulari va mahorati orqali yaratiladigan turli janrlarda hikoya, qissa, drama, roman ko'rinishidagi adabiy ijod mahsuli hisoblanadi. Unda ijodkor o'z g'oyalarini, yetakchilik qilayotgan mavzuni turli usullar va tasvirlar orqali yetkazib berishga urinadi. Asarlarning mohiyati, mazmuni unda ishtirok etayotgan inson omili orqali ochib beriladi. A. Qahhor ham adabiyotning tasvir predmeti odam. Odam yo'q ekan, badiiy adabiyot yo'q-deya ta'kidlab o'tgan, har qanday mavzudagi asar borki, uning markazida turli qiyofalar, emotsiyalar, psixologik vositalar bilan shakllantirilgan inson obrazi turadi va bu orqali kitobxon asarni chuqurroq, yorqinroq anglaydi, inson ishtiroki bilan asar kitobxonga yanada ta'sirliroq, qiziqarliroq tuyuladi, o'zini qahramon o'rnida his qilib o'qigandagina yozuvchining muddaosini tushunadi. Asardagi inson obrazi badiiy psixologizm orqali shakllantiriladi. Badiiy psixologizm badiiy tasvir vositalaridan

ADABIYOTSHUNOSLIK

hisoblanib, asarda inson ruhiyati, ichki dunyosini ochib beruvchi juda keng qamrovli vosita bo'lib, ko'plab izlanuvchilarning tadqiqot obyektiga aylangan va baxs-munozaralarga ham sabab bo'lmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ba'zi manbalarda psixologizm tushunchasi antik davrda paydo bo'lganligi aytilsa, boshqalarida Uyg'onish davri badiiy psixologizm poydevori sifatida qaraladi. Bu borada A.B Yesin psixologizm aniq san'at shakli ekanligi, uning orqasida badiiy ma'no, g'oyaviy va hissiy mazmun turishi va ifodalanishini aytadi.[1] Ya'ni birgina psixologizm so'zining zamirida qahramon xarakteri, ruhiyati, o'ylari, hislari, butun bir personajni shakllantiruvchi detallar jamlanib badiiy ma'no ochib beradi deb ikkilanishlarsiz aytishimiz mumkin. U haqida ilk kuzatishlar olib borgan N. G. Chernishevskiy L. N. Tolstoy ijodida psixologizmning rang-barang shakllari mavjudligini ta'kidlab o'tgan edi.[2,15] Uning psixologik tahlilga nisbatan "ijodiy talantga kuch bag'ishlaydigan sifatlar ichida eng muhimi" degan bahosi hali ham dolzarbligini yo'qotmagan. Keyinchalik bu tushuncha adabiyotshunoslik madaniy-tarixiy maktabining psixologik yo'nalishi vakillari, jumladan, tilning psixologiyasi va adabiyot bilan aloqadorligini o'rganib chiqqan tilshunos va faylasuf A. Potebniya tomonidan ilmiy sohaga olib kirildi. Bu yo'nalish bo'yicha rus adabiyotshunoslari Vissarion Belinskiy, Nikolay Chernyshevskiy, Fyodor Dostoyevskiy, nemis adabiyotshunolaridan Vilgelm Dilthey, Sigmund Freud, inglizlardan Henry James, Uilliam James kabilar izlanish olib bordilar va asarlari orqali yoritib berdilar. O'zbek adabiyotida bu yo'nalish XX asr boshlarida rivojlangan bo'lib rus olimi A.B. Yesin, G'afur G'ulom, Naim Karimov, G'aybullar Salomov o'z yondashuvlarini isbotlab bergan hamda nazariy asoslarini ishlab chiqqanlar.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Yozuvchi asarda qahramon obrazida ifodalangan tasvir orqali butun bir asar g'oyasini, mazmunini ochib berishi mumkin. Kitobxon asarni mutolaa qilar ekan, qahramon ruhiyati, undagi o'zgarishlar, xarakteri, vaziyatlarga nisbatan ta'siri orqali yetakchi g'oyani anglaydi. Bunda qahramonni kitobxonga tasvirlovchi badiiy psixologizm asosiy vositalardandir. "Nimalar ko'proq va chuqurroq tasvirlansa asar yanada qiziqarli bo'ladi" degan so'rovnoma, a) turfa voqea-hodisalar, b) inson ruhiyati, ichki dunyosidagi tebranishlar tasviri, c) hayvonot va nabotot olami tasviri, d) qahramon xarakterini to'la ochib berishga xizmat qiladigan voqea-hodisalar tasviri kabi tasviriy vositalarga 70,2 foiz ishtirokchi inson ruhiyati, ichki dunyosidagi tebranishlar deya javob beradi.[3,19] Bundan ko'rinib turibdiki, badiiy psixologizm asarda yetakchi rol o'ynaydi. Chunki u asar qahramonlarining ichki kechinmalari, fikr jarayonlari va emotsional holatini tasvirlash orqali ularning xarakterini yanada jonli va ishonchli ko'rsatishga imkon beradi. Qahramon psixikasi tasviri: qo'l, oyoq, yuz, gavda harakatlari, gapirishdagi ohang turlari, mimikalari, miyyasidagi o'y-kechinmalar, kiyinish uslubi kitobxonga asarni teranroq anglashga xizmat qiladi, sababi kitobxon ham inson, unda ham bu psixologik jihatlarning ma'lumlari tanish bo'lishi tabiiy, natijada kitob mutolaa qilinar ekan qahramon psixologizmi kitobxon hislariga ta'sir etishi shubhasizdir.

Badiiy psixologizm inson ruhiy holatini quyidagi yo'llar orqali ochib beradi:[4,391]

Ichki monolog- qahramonning o'zi bilan o'zi qurgan suhbat orqali yoritiladi. Masalan, Uilyam Shekspir "Otello" tragediyasida Otello:

Foy, foy, foy!

Agar men uni sevishtni bas qilsam, yuragim yirtilib ketar!

Men unga ishonaman-yo'q, ishonmayman.

Ammo nima uchun Kassio unga mendan yaxshi yoqishi kerak?

Yo'q, mening yuragim bunga chidolmaydi!

Agar men bilsam, bu butunlay yo'qotilgan tinchlik, yo'qotilgan qalb demakdir!

Nega men shunday bo'lishini xohlayman?

O, menda isbot bo'lsa edi!

Ko'zim bilan ko'rsam edi!

Yo'q, men ortga qaytolmayman,

O'zimni to'xtatolmayman!

O, g'azab! O, hasad! Bu ko'ngil azobi meni yemirib tashlaydi!"[5,256]

Monologda Otelloning ichki ziddiyati, ikkilanish („Men unga ishonaman—yo‘q, ishonmayman“) g‘alayoni yaqqol namoyon bo‘ladi. Qarama-qarshi tuyg‘ular sabab, Otello sevgisi nafratga tomon ko‘chayotganini ko‘rish mumkin.

Tush va hayollar. Bunda qahramon tushi yoki va o‘ylari orqali uning kechinmalari, ruhiy holati aks ettiriladi: “Tush ko‘rsam, onam chiroq ko‘tarib yurganmish. Yuzini aniq ko‘rmasmishmanu, ammo qo‘lidagi chiroq xira nur sochib turganmish. «Ko‘zingga qara, bolam, chuqur bor».[6,8]dermish nuqul. Qarasam, chuqur yo‘q.” Matn orqali qahramon ichki dunyosionaning mehribonligi, lekin chiroqning xira nur sochishi, onasining yuzi aniq ko‘rinmayotgani o‘tgan kunlarga bo‘lgan afsus, ona sog‘inchi, “chuqur bor” degan jumlasida esa hayotdagi qiyinchiliklar, ichki bo‘shliqni tasvirlaydi.

Harakat va yuz ifodalari. Inson ruhiyatidagi vaziyatlar, o‘zgarishlar mayda detallar bilan ifodalanadi. Bunda yozuvchi qo‘llarini musht qilishi, oyoqlarini tebratishi, odimlab qadam bosishi, chuqur nafas olishi, qo‘llarini o‘ynashi, yuzlar qizarishi, qoshlari tepaga ko‘tarilishi, burnini jiyirishi, ko‘zlarini kata-katta ochib qarashi, labini burishi, chuqur nafas olishi kabi va boshqa harakatlar va yuzning turli usullardagi tasviri bilan personaj holatini, kechinmalarini namoyon qiladi. Jumladan, „Uning rangi oqarib, ko‘zlari ich-ichidan yonardi. Lablarida titroq, qo‘llari esa beixtiyor mushtlanardi. Nafas olishi og‘ir, peshonasidan esa mayda terni ko‘rish mumkin edi.” [7,80] Bu badiiy tasvirlar orqali bemorning ahvoli tobora yomonlashayotgani, kasallik uni azoblayotgani, “lablarida titroq, qo‘llari esa beixtiyor mushtlanardi” tasviridan og‘riqning kuchayayotganini sezish mumkin. Ta‘kidlash kerakki, Abdulla Qahhor nafaqat „Bemor“ hikoyasida, balki butun bir ijodida badiiy psixologizmning bir necha turlaridan mohirona foydalangan holda kitobxon qalbidan joy olgan va kitobxon his-tuyg‘ulariga ta‘sir eta olgan desak yanglishmagan bo‘lamiz.

Dialoglar va pauzalar. Qahramon nutqi uslubi va to‘xtalishlari tasviri orqali, uning his-tuyg‘ulari, holati ifodalanadi. “- Bizni kutdirma, o‘g‘lim. Otabek mag‘lub bir boqish bilan bu so‘zni aytkuchi otasig‘a qaradi va yalinchoq bir ohangda javob berdi: - Men sizlarning orzularingizni bajarishka - agar xursandchilig‘ingiz shu bilan bo‘lsa - har vaqt hozirman. Ammo bir bechoraga ko‘ra-bila turib jabr ham xiyonat...Hoji o‘g‘lining maqsadig‘a darrov tushuna olmadi va so‘radi:- Kimga, xotiningg‘ami? - Yo‘q, sizning oladig‘an kelingizga. O‘g‘lingizning vujudi bilan orzuingizni qondirish oson bo‘lsa ham kelingiz qarshisida meni bir jonsiz haykal o‘rnida tasavvur qilingiz. Otabek bir o‘g‘iz so‘z aytmay sukut qildi, Yusufbek hojining esa o‘g‘lining so‘zini to‘g‘rilig‘ig‘a, keyindan yuz ko‘rsataturg‘an ko‘ngilsiz ishlarga aqli yetsa ham, ammo bir mulohaza yuzasidan istiqbolning qorong‘i ishlarini hozir uncha mulohaza qilib ko‘rmadi.”[8,138] Quyidagi qahramonlarning nutqidan ko‘rinib turibdiki, vaziyat ancha murakkab: Otabek garchi ko‘ngli Kumushda bo‘lsada, ota-onasining rayiga qarshi borolmay, ko‘ngli va burchi o‘rtasida sarson bo‘layotgani, ruhiyati azob chekayotgani, bu kelgusida ham muammolarga sabab bo‘lishi mumkinligi nuti orqali ko‘rsatib berilgan.

Hotam Umurovga ko‘ra qahramon psixologizmi uch turdagi prinsiplar yordamida shakllantiriladi, ular quyidagilar: a)analitik prinsp – bu prinsip orqali qahramonning ruhiy holati, ichki kechinmalari, psixologik portreti, assotsiativ fikrlash usullari alohida sahnalar orqali tahlil qilinadi. Masalan, A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida Otabekning uxlab yotganida uyqusirab “oy kabi yuzlar, kulib boqishlar, cho‘chib qochishlar” kabi jummalarni qaytarishi va o‘zini tutishidagi o‘zgarishlari, ya‘ni bir nuqtaga uzoq tikilib qolishlari, hayoli o‘zida emasligi, Hasanali Otabekka so‘zlaganda ham javob bermay esankirab qolishlari kabi ruhiyat ifodasi, ichidan o‘tayotgan kechinmalari bilan kitobxon uning vujudida boshqa bir o‘y, muhabbat kurtak ochganini sezishi mumkin.

b) dinamik prinsip – insonning ichki psixikasi tashqi voqea-hodisalar tufayli o‘zgarib boradi, tashqi harakatlar ichki o‘zgarishlarga bog‘langan holda namoyon bo‘ladi, kechinmalar ziddiyatli bo‘lib, qahramonning ichki olamida kurash jarayoni tasvirlanadi, muallif nutqidagi qahramon holati, ovozi, yuzdagi o‘zgarishlar ta‘kidlanadi. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida, Sultonxonning ovozida hech qanday qaltirash, qo‘rqish va tortinish asarlari yo‘q edi, xuddi qichqirganday chiqardi. Har bir so‘zi dona-dona va dadil aytilardi”[9,202] misolidan ko‘rinib turibiki, ovoz ohangi tasviri o‘zidayoq muallif Sultonxon obrazining o‘ziga ishongan, dadil, o‘z fikriga ega, mustaqil ayol ekanligiga ishora qilyapdi.

ADABIYOTSHUNOSLIK

c) sinetik prinsip – qahramon ruhiy dunyosining barcha jihatlarini badiiy yaxlitlikda ifodalashga qaratilgan bo'lib, psixologik holatlar tafsilotlari tarqoq holda emas, balki yaxlit kompozitsiyada birlashadi, ichki kechinmalar syujet bilan uzviy bog'langan bo'ladi, inson ongi, hissiyotlari va ongsiz jarayonlar bir-biriga uyg'un tarzda tasvirlanadi.[10,49] Yozuvchi g'oyani, mavzuni, personaj holatini ko'rsatib berish maqsadida qahramon kechinmalari, falsafiy qarashlar, tabiat tasviri, peyzaj, real vaziyalarni uyg'unlashgan holda foydalanadi. Chingiz Aytmatovning "Jamila" qissasida Men, yangam hozir menga butun sir-asrorini ochib, yuragidagi dardini aytsa kerak, deb kutardim. Lekin u hech narsa aytmay, erkalatib boshimni o'z tizzasiga qo'yardi-da, o'zi olis- olislarga uzoq tikilganча qaltiragan issiq kaftlari bilan sochimni, yuzimni sekin-sekin silardi. Men yangamning tashvishli, g'amgin chehrasiga qarar ekanman, negadir o'zimni unga o'xshatardim. Chunki uning ham qalbini allaqanday bir hissiyot o'rtayotganini, uning ham yuragida yangi umid-orzular uyg'ona boshlaganini sezib qolgandim. Nazarimda, Jamila bu otashin hisni qalbidan chiqarib tashlashga urinayotgandek bo'lardi".[11,21] Quyidagi parchada yozuvchi prinsiplarni umumlashgan holda ustalik bilan qo'llaganini ko'rish mumkin, ya'ni hikoyachi Jamilani unga sirlarini aytadi deb kutishi falsafiy qarash, Jamilaning hech narsani aytmayligi, aslida uning boshida urushga ketgan, tirikligi noma'lum bo'lsada, turmush o'rtog'ining borligi reallikni, qaltiragan kaftlari, tashvishli, g'amgin chehrasi, tashqariga chiqarilishga, ozodlik berilishga muhtoj bo'lgan otashin hislar esa uning ruhiy va ichki kechinmalaridan darak beradi. Ko'rib turganimizdek, yuqorida turli prinsiplar sintezlashgan holda asarni ochib berishga yo'naltirilmoqda.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, psixologizmning uchta prinsiplari va turli xil ko'rinishlari bo'lishi mumkin, lekin ulardan asarda mohironalik bilan foydalanish, ma'lum bir turi asarda dominantlik qilgan holda yoki uyg'unlashgan ko'rinishda foydalanilish ijodkorning mahoratiga bog'liq. Qachonki kitobxon o'zini asarning yozuvchisidek his qilsa yoki asosiy maqsadni, mazmunni asar orqali his qilsa, yozuvchi mahorati maromida qo'llanganligiga dalolatdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yesin.A.B. Adabiy asarni tahlil qilish tamoyillari va usullari. – 4-nashr. – M.,2002
2. Чернышевский Н. Г. Детство и отрочество. Военные рассказы. Сочинения графа Л.Н. Толстого. Собр. соч.: В 15 т. Т. 2. – М.: 1949. – С. 505
3. Boboxonov.M.Rahmatillayevich. Hozirgi o'zbek romanlari strukturasida psixologizm muammosi, – Samarqand, 2023. – B 19
4. D.Abdullayeva.Adabiyotshunoslikda badiiy psixologizm tushunchasi va masalasining tarixi. –Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences journal, volume 1,2021. –B.391
5. ВИЛЬЯМ ШЕКСПИР.ТАНЛАНГАН АСАРЛАР. Биринчи жилд. – Тошкент. – Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б.256
6. О ' . Hoshimov. Dunyoning ishlari. – Toshkent. – Meriyus,2015. –B.8
7. ABDULLA QAHHOR. ANOR Qissa va hikoyalar. – Toshkent. – G'afur G'ulom nomidaginashriyot-matbaa ijodiy uyi,2012. – B.80
8. A.Qodiriy.O'tkan kunlar. – Toshkent. – Navro'z,2019.– B.138
9. Cho'lpon.Kecha va Kunduz. –Toshkent. –Sharq,2000. – B.202
10. H.Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –Toshkent. –Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2004. –B.49
11. Chingiz Aytmatov.Jamila. –Toshkent. –G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matba ijodiy uyi,2005. –B.21